

# INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “DONOLIK” VA “NODONLIK” KONSEPTLARINI VOQELLANTIRUVCHI GASTRONOMIK KODLAR

*Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi*

*Farg‘ona politexnika instituti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “donolik” va “nodonlik” konseptlari bilan bog‘liq gastronomik kodlar tadqiqiga bag‘ishlanib, ingliz va o‘zbek tillarida ularning qiyosiy va farqli jihatlarini o‘rganilishi muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, maqolada ingliz va o‘zbek tillariga xos oziq-ovqat nomlari qiyosiy jihatdan taqqoslanib, lingvomadaniy xususiyatlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** konsept, donolik, nodonlik, gastronomik kodlar, ekvivalent.

**Аннотация:** данная статья посвящена исследованию гастрономических кодексов, связанных с понятиями “мудрость” и “невежество”, и характеризуется тем, что изучение их сравнительных и отличительных аспектов на английском и узбекском языках приобретает важное практическое значение. В статье также сравнительно сопоставлены названия продуктов питания, характерные для английского и узбекского языков, и описаны лингвокультурные особенности.

**Ключевые слова:** концепция, мудрость, невежество, гастрономические коды, эквивалент.

**Abstract:** this article is devoted to the study of gastronomic codes related to the concepts of “wisdom” and “foolishness”, and is characterized by the fact that the study of their comparative and distinctive aspects in English and Uzbek is of great practical importance. The article also comparatively compares the names of food products characteristic of the English and Uzbek languages, and describes linguistic and cultural features.

**Key words:** concept, wisdom, foolishness, gastronomic codes, equivalent.

Gastronomik kodlar har bir millat madaniyatida mavjud bo‘lib, o‘sha xalqning turmush tarzi, milliy mentaliteti bilan bevosita bog‘lanadi. Bu haqida gulyutonik (oziq-ovqat bilan bog‘liq) diskurs haqida o‘z tadqiqotlarini olib borgan G.K.Odilova monografiyasida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi: “Bir millatning gulyutonik diskursi shu millatga xos taomlanish bilan bog‘liq odatlar, an‘analar, arxitepik tasavvur va mifologik qarashlar, millat madaniyati va turmush tarsi, tabiati va iqlim sharoiti bilan ham bog‘liq bo‘ladi”. [2,42] Jumladan, muallif milliy xarakterni o‘rganish, bir til vakillarining dunyoqarashlarini tahlil qilishda “choy” konseptosferasini ingliz va o‘zbek tillarida gastronomic freymini taqdim etish orqali amalga oshiradi. O‘zbek madaniyatida choyxo‘rlikdan maqsad chanqoq bosish, ovqatlanish, suhbatlashish, muhim masalalarni muhokama qilish, yarashib olish bo‘lsa, inglizlarda choy ichish kun davomida 5-6 martagacha bo‘lishi aytib o‘tilgan. Kunduzgi choy ichishlar ingliz xalqida qisqa muddatli charchoq chiqarish, kechki choy ichish oila va do‘stlar davrasida turli xil yangililardan xabardor bo‘lish uchun tashkillanishi keltirilib o‘tilgan.

Biz ham tadqiqotimizda ingliz va o‘zbek tillarida “wisdom”– “donolik” konseptini nutqda verballashuvida ishtirok etuvchi iboralar tahlilini ko‘rib chiqamiz. Ingliz tilida “*smart cookie*” iborasi kimnidir aqlli deb aytishning so‘zlashuv usulidir: *He’s a smart cookie, adjusting his songs to fit his audiences*. Ingliz madaniyatida pechenyelar (cookie) uzoq tarixga ega bo‘lib, ular ko‘pincha Rojdestvo arafasida Santa Klausga pechenye va sut qoldirish kabi an‘analar bilan bog‘liq. Hozirgi kunda Britaniyada pechenyelarni tushdan keyin choy bilan tanovul qilinishi ingliz taomnomasining ajralmas qismiga aylangan.

“O‘zbek xalq matal va iboralar ensiklopediyasi” dan oziq-ovqat bilan bog‘liq “donolik” konseptining verballashuvida xizmat qiluvchi 2 ta iboraga duch keldik:

1) *zuvalasi ortiq* [2,102] 2) *gapni ham zira-piyozlab, toza boplaydi*. [2,162]

Birinchi iborada “zuvala – xamirdan qilingan bo‘lak, soqqa” ma‘nosida qo‘llanilib, nonning tarkibiy qismi sanaladi. Xamirning zuvalasi ortiqroq bo‘lsa, non

boshqa nonlarge qaraganda kattaroq, salmoqliroq bo‘ladi. Mana shundan “*zuvalasi ortiq*” iborasi olingan. Shuning uchun, ko‘chma ma’noda ilmda va hunarda boshqalardan ortiqroq va peshqadam bo‘lgan odamga nisbatan mazkur ibora qo‘llaniladi.

Odatda, tuzi meyoriga keltirilgan, zira-piyozlangan, muruchlangan go’shtni yoki yog‘liq ovqatni yeyish yaxshi, hazm qilish ham oson bo‘ladi. Pazandalarning bunday ishlari odamlar nutqiga ham ko‘chadi. Ba’zi odamlarning yozma va og‘zaki nutqi g‘oyat chiroyli qurilgan bo‘lib, ularning gapi kishilarga tez ta’sir etadi, shu bilan birga, o‘z nutqida ajoyib xalq maqollarini, iboralarini o‘z o‘rni bilan ishlatadi, natijada, gapi ham kishilarning qalbiga tez kirib boradi. So‘zni shunday ishlatadiki, biror so‘zni olib tashlash, yoki yangi so‘z qo‘shish, almashtirish mumkin bo‘lmaydi. Bu, albatta, donolarga xos xususiyatdir. Shuningdek, ko‘p badiiy asar o‘qiydigan odamlarning nutqi mana shunday chiroyli qurilgan bo‘ladi. Bunday odamlar nutqiga nisbatan “*gapni ham zira-piyozlab, muruch-qalampirlab, toza boplaydi*” iborasini ishlatadilar.

Ingliz va o‘zbek tillarida “foolishness– nodonlik” konsepti bilan bog‘liq quyidagi gastronomic kodlar mavjud:

*Turnip (Sholg‘om)*. Ingliz tilida ahmoq odamlarni tasvirlash uchun “*turnip head*” ya’ni “sholg‘om bosh” iborasidan og‘zaki nutqda keng foydalaniladi.

*Ach, you turnip head! You think I am afraid of you.*

(Harper’s Magazine, 1891)

O‘zbek tilida sholg‘om lug‘aviy birligidan qattiq izza bo‘lish, uyalish, xijolat bo‘lish natijasida odam rangining o‘zgarishi, qizilga moyil tusga kirishi haqida gap ketganda foydalaniladi: [1, 265-266] *Ishingni qil deyapman, – shunday deb notanish bola sekin boshini ko‘tardi. Ko‘tardi-yu, uyalganidan bo‘lsa kerak, sholg‘omdek qizarib ketdi.* (X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib)

O‘zbek tilida sholg‘om turg‘un o‘xshatishi ingliz tildan farqli ravishda nodonlik konseptidan ko‘ra, ko‘proq “uyalish” konsepti bilan uyg‘unlashadi.

*Cabbage (Kapam).* So‘zlashuv uslubiga xos “*cabbage head*” (karam bosh) yana bir ibora mavjud bo‘lib, esi past yoki befarq insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu ibora do‘stona tarzda kimnidir masxara qilishning yengil usuli sifatida qaraladi.

*Did you hear that guy’s ridiculous question? Geyez, what a cabbage head.*

O‘zbek tilida ham ahmoq insonlarni ma’lum bir sabzavotlarga taqqoslash holatlari bor:

*Qovoq.* Miyasi yo‘q, aqlsiz, ahmoq insonlarga nisbatan “*qovoq kalla*” (yoki bosh) iborasi qo‘llaniladi. [4,346]

*Shuni ham tushunmay so‘rab o‘tirasanmi, qovoq bosh.*

(S.Ayniy, Jallodlar)

*Bodring.* O‘zbek tilida “nodonlik” konseptining verbalizatori sifatida “*bodringcha ham maza-matrasi yo‘q*” iborasining tahlili tanishar ekanmiz, nodon insonlarga xos yana bir xususiyatga guvoh bo‘lamiz. Ma’lumki, bodring Shirin bo‘lmaydi, ba’zilari achchiq yoki taxir bo‘ladi. Umuman, boshqa sabzavotlarga nisbatan mazasi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham uni tuzlab yoki tuz sepib yeydilar. Bodringning mana shu xususiyati odamga nisbatan ham qo‘llaniladi, ya’ni so‘zida, gapida ta’sir bo‘lmasa og‘ziga kelgan bemaza, bema’ni gaplarni oylamay gapiraversa, bunday odamga yoki uning gaplariga nisbatan “*bodringcha ham maza-matrasi yo‘q*” iborasi ishlatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har ikki tilda “donolik” va “nodonlik” konseptlarini voqellantiruvchi oziq-ovqatga doir kodlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ammo bir tushuncha turli xil meva va sabzavotlari bilan bog‘liqlikda talqin etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. -B.265-266.
2. Odilova G.K. Glutonik diskurs asoslari. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020. –B.42.
3. Shomaqsudov Sh., Dolimov S., Dolimov U. Keng uyning kelinchagi yoki o‘zbek xalq matal va iboralari ensiklopediyasi. – T.: “Sharq”, 2020. –B.102, 162.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev, E.Begmatov tahriri ostida.Toshkent:2006-2008 yy.
5. 1.Акбарова, Ш. Ф. (2023). ЎЗБЕК НАСРИДА А. КАМЮ ТАЪСИРИ ВА ТАЛҚИНИ. *Scientific progress*, 4(4), 321-325.
6. 2. G‘aniyevna, A. S. (2023). TALABALARNING FRANSUZ TILIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(6), 311-315.
7. 3. Akbarova, S. G. (2023). TYPOLOGICAL SIMILARITY AND INTERACTION–AN ACTUAL PROBLEM OF COMPARATIVE LITERATURE. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*, 8(8), 19-22.
8. 4. Акбарова, Ш. (2022). Адабиётшуносликда талқин ва герменевтика масалалари. *Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке*, (1), 44-45.